DOI 10.66073/ReFocus-Conf/3010103

TIBBIYOT BUYUMLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MIKROBIOLOGIK MONITORING TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH


Nukus Med Tex korxonasi mikrobiologi
Jabborova Sabohat Jalil qizi

Annotatsiya: Tezisda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mikrobiologik monitoring tizimini tashkil etish, takomillashtirish va samaradorligini baholash masalalari yoritilgan. Ishlab chiqarish muhiti mikrobiologik holatini muntazam nazorat qilish mahsulot xavfsizligini ta’minlash va biologik xavflarning oldini olishga xizmat qiladi. Monitoringda ishlab chiqarish havosi, ishchi yuzalar, texnologik jihozlar, xodimlar qo‘llari va ishlab chiqarilayotgan buyumlar nazorat qilinadi. Natijalarni tizimli qayd etish va dinamik tahlil qilish profilaktik hamda tuzatuvchi choralarni o‘z vaqtida belgilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: tibbiyot buyumlari, mikrobiologik monitoring, mikrobiologik nazorat, ishlab chiqarish muhiti, havo mikroflorasi, ishchi yuzalar, sanitariya-gigiyena, dezinfeksiya, mikrobiologik xavfsizlik.

Kirish

Ishlab chiqarish muhitidagi mikroorganizmlar mahsulotning mikrobiologik holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ishlab chiqarish xonalari va texnologik jarayonlarning sanitariya-mikrobiologik holatini muntazam nazorat qilish zarur. Monitoring kontaminatsiya darajasini aniqlash, uning dinamikasini kuzatish va potensial xavf manbalarini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Bunda mikroorganizmlar havodan, xodimlar faoliyatidan hamda ishchi yuzalar va jihozlardan mahsulotga o‘tishi mumkin. Shu sababli nazorat faqat tayyor buyumlar bilan cheklanmay, ishlab chiqarish muhitining mikrobiologik holatini ham qamrab olishi lozim. Nazorat natijalarini belgilangan mezonlar asosida baholash va muntazam qayd etish biokontaminatsiya manbalarini aniqlashga yordam beradi [2, 3].



1-rasm. Mikrobiologik monitoringning asosiy obyektlari

Tadqiqotning maqsadi

Mikrobiologik monitoring tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish muhitining mikrobiologik holatini kompleks baholash va mikrobiologik nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish.

IQTIBOS UCHUN
Jabborova S.J. Tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mikrobiologik monitoring tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini baholash // Fundamental va amaliy mikrobiologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari: yosh olimlar nigohi: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2026. – B. 365–366.
DOI: https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/3010103

Materiallar va usullar

Ishlab chiqarish havosi, ishchi yuzalar, texnologik jihozlar va xodimlar qo‘llaridan namunalar olinadi. Havo holatini baholashda sedimentatsion usuldan foydalanish mumkin: oziqlantiruvchi muhitli Petri kosachalari belgilangan vaqt ochiq qoldirilib, inkubatsiyadan so‘ng koloniyalar hisoblanadi. Ishchi yuzalar va qo‘llardan steril tampon yordamida namuna olinib, oziqlantiruvchi muhitlarga ekiladi va inkubatsiyadan keyin o‘sish baholanadi.



2-rasm. Mikrobiologik monitoring jarayonining umumiy ketma-ketligi

Natijalar va muhokama

Kompleks monitoring ishlab chiqarish muhitidagi potensial mikrobiologik xavf manbalarini aniqlash imkonini beradi. Havo, ishchi yuzalar, xodimlar qo‘llari va buyumlarni birgalikda nazorat qilish sanitariya-mikrobiologik holat haqida tizimli ma’lumot beradi. Ko‘rsatkichlar oshganda tozalash va dezinfeksiya sifati, xodimlar gigiyenasi, texnologik jarayonlarga amal qilinishi va boshqa kontaminatsiya manbalari qayta baholanadi. Natijalarni jurnal yoki elektron bazada qayd etish va davriy tahlil qilish profilaktik hamda tuzatuvchi choralarni o‘z vaqtida ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa

Mikrobiologik monitoringni tizimli va kompleks tashkil etish ishlab chiqarish muhitining sanitariya-mikrobiologik holatini nazorat qilishda muhim. Havo, ishchi yuzalar, jihozlar, xodimlar qo‘llari va ishlab chiqarilayotgan buyumlarni muntazam nazorat qilish potensial kontaminatsiya manbalarini aniqlash va oldini olish imkoniyatini oshiradi. Natijalarni tizimli qayd etish, dinamik tahlil qilish hamda profilaktik va tuzatuvchi choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish mikrobiologik nazorat samaradorligi va mahsulot xavfsizligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ISO 13485. Medical devices — Quality management systems — Requirements for regulatory purposes.
2. ISO 14698-1:2003. Cleanrooms and associated controlled environments — Biocontamination control — Part 1: General principles and methods.
3. ISO 14698-2:2003. Cleanrooms and associated controlled environments — Biocontamination control — Part 2: Evaluation and interpretation of biocontamination data.
4. World Health Organization. WHO good manufacturing practices for pharmaceutical products: main principles.

 DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/3010103